



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




No 7
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 306 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabihev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'idoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarcand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahriri yati DM bosh muharriri, O'zbekiston

Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'inining birinchi o'rinnbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Umarova H. O' – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda

Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va matab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va matab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361

MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari	16
Doniyorov Salim Musurmonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	23
Nazarov Odil Omanqulovich	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni	27
Abirova Umida Nazarovna	
Maktabgacha yoshdag'i bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati	30
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari	34
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna	
Maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiyo yinlarning ahamiyati	38
Salimova Dilimira Farxodovna	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar	41
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich	
Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'lima muloqotning ahamiyati.....	44
Boltayev Baxtiyor Yunusovich	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar	48
E. Po'latova	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ...	51
Egamova Ravshanoy Surobjonovna	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin? Innovatsion ta'lif yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	55
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li	
Nutq Kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi	60
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons	63
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish	67
Nomozova Dilobar Suyun qizi	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar	72
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories	75
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature	80
Ruzieva Maftuna	
Onlayn va gibrid ta'lif sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	85
Sarimsakova Sohibaxon Raxmonjanovna	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "Metallar va ularning umumiyl xususiyatlari" mavzusida)	88
Sharipova Hakima Shavkatovna	
Metacognition and Self-Regulated Learning	92
Turayeva Nazira Ibragimovna	
Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода	95
Меденцева Наталья Петровна	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lif muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari	100
Jonibekov Jasur Jonibekovich	



O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	105
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi	
Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi.....	108
Bakayev Najmiddin	
Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida	112
Egamova Madina Qobil qizi	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari.....	116
Egamova Shukriya Amanova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari	119
G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi	
Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullariga o'tish	124
G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich	
Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	128
Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	131
Ikromova Munisa Sheraliyevna	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari	134
Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna	
Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar	138
Jumanova Iroda Shokirjon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	141
Jumayeva Sarvinoz Ilhombekovna	
Talabalarda nutqiylarini shakllantirish texnologiyasi	145
Kiyamova Maxbuba Sultanovna	
Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlari.....	148
Mamadiyorov Jamol	
Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari.....	152
Sharipova Firuza Mehriddinovna	
Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli	155
Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li	
Maktabgacha ta'lilda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida.....	159
Xallokova Maksudaxon Ergasheva	
Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari.....	162
Xatamova Ferangiz Ibodulloyevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	166
Xudoberganova Matluba Quisoxatovna	
Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzallikkleri.....	170
Yodgorova Gulrux Farhodovna	
Совершенствование методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования.....	174
Юлдашев Эргаш Сабирович	
O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati	177
Kudenov Temurbek Maxsetbaevich	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida	180
Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna	
Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamlı ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar	185
Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi	
The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes	189
Meliboyev Zuxriddin Isroiil ugli	



O'zbekistani tarixi darslari pedagogik improvisatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari	192
Ergasheva Muhayyoxon G'anjonovna	
Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi.....	196
Arslanova Umidaxon Komiljon qizi	
Baxtli pedagoglar sirlari yoki kasbdagi subyektiv farovonlik	201
Adilova Zulfiya Djavdatovna	
Ayollarning siyosiy faolligini oshirishda gender kvotalarining o'rni	204
Abdukaxorova O'g'iloy Isroiljon qizi	
The Content of Developing Students' Communicative Culture Through a Bilingual Approach	207
Abdulkhalilova Feruzakhon Ulugbek kizi	
Maktabgacha yoshdagi nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini shakllantirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati.....	210
Abdullahayeva Ugiloy Djurayevna	
Chet tili intellektual va kasbiy rivojlanish kaliti	214
Aripova Sayida Abdulaxatovna	
Raqamli etiket: zamonaviy ta'lilda yangi madaniyat talabi	217
Rasuljon Atamuratov	
Raqamli xiyonat: zamonaviy munosabatlar va sodiqlik inqirozi.....	221
Azizova Shodiya Utkur qizi	
Badiiy tarjimada leksik birliklarning lingvomadaniy aspektlari	224
Mardiyeva Maxbuba Shavkatovna	
O'quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturiy platformani pedagogik loyihalash.....	228
Obloqulov Sulaymon Maxmayusuf o'g'li	
Kurashchilar orasida jarohatlarning oldini olish: reabilitatsiya va profilaktik uslublar	232
Ochilova Sarvinoz Salim qizi	
Xalq og'zaki ijodi vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari	236
Oxunova Nozimaxon Mirzag'ulom qizi	
Loyiha asosidagi o'qitish orqali yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish usullari.....	239
Risvayeva Charos Zaydilla qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'yinlar vositasida o'rgatishga qaratilgan mashq va topshiriquqlarning samaradorligi.....	242
Toshniyozova Dildora, Meliyeva Nargizaxon	
Bo'lajak o'qituvchillarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish modeli	245
Tursunova Dilnoza Adhamjon qizi	
Shaxs rivojlanishida pedagogika va psixologiyaning o'rni	248
Umirova Gul'dona Jamoliddin qizi	
Toshkent shahri havosi ifloslanishining sabablari va oldini olish choraları	251
Ungalov Akmal Navruzovich	
Sun'iy intellekt asosida tuzilgan interaktiv platformalar va ulardan foydalanuvchi tajribasi	254
Xabirova Zulfiya Anvarbekovna	
Talabalar ijtimoiy faoliyk indeksini rivojlantirishda tyutorlik faoliyatining o'rni va ahamiyati	257
Xamrakulov Jasurbek Muxammadjon o'g'li	
Hozirgi davr pedagogikasida sharqona ta'larning ahamiyati.....	260
Yuldasheva Mastura Islamovna	
Пословицы и поговорки как отражение картины мира	263
Алламбергенова Шахноза Садатдиновна	
Raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirishda mustaqil ta'limning o'rni	268
Abdumannopov Muhammadsohib Muhammadyusuf o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy-kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlar.....	272
Khadicha Mukhamadiyeva Karomatovna	



Zamonaviy didaktik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning analitik va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish.....	277
Mo'minova Gulhayo Turg'unboy qizi	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari.....	280
O'rinovala Nilufar Muhammadovna	
Aholi o'rtasida yoshlarning pedagogik intervensiylar orqali ilmiy faolligini oshirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish metodikasi.....	286
Raximov Xasanboy Kamoliddin o'g'li	
Buyuk ipak yo'li – yangi geosiyosiy va iqtisodiy aloqalarning tarixiy asosi sifatida.....	290
Tugalova Madina Erkin qizi	
Ilk maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiya.....	293
Umarova Muyassarxon A'zamjonovna	
Rus tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari.....	297
Xanova Dilrabo	
Didactic Possibilities of Teaching English in Primary Schools Based on 3D Interactive Technologies	303
Kholidova Lutfiya Umurzoqovna	

КОМПЕТЕНСИЯВИЙ YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TYUTORLIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI

O'rinovalar Nilufar Muhammadovna

Farg'onan davlat universiteti professori v.v.b.,
pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy ta'limgiz tizimida bo'lajak o'qituvchilarni professional faoliyatga, xususan, tyutorlik faoliyatiga tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning ilmiy-nazariy asoslari chuqur tahsil qilinadi. Kompetensiyaviy yondashuv – bu shaxsda fanda tan olingen bilimlar, amaliy ko'nkmalar, ijtimoiy-kommunikativ tajribalar, mustaqil qaror qabul qilish hamda o'z faoliyatini baholash qobiliyatini uyg'un holda shakkantirishga yo'naltirilgan tizimli yondashuv bo'lib, u XXI asr ta'liming global talablariga javob beradi. Maqolada tyutorlik faoliyatining mohiyati, uning o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik funksiyalari va zamonaviy kompetensiyalar tizimidagi o'tni aniqlanadi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni ushbu faoliyatga tayyorlashda zarur bo'lgan samarali pedagogik shart-sharoitlar tizimi asoslab beriladi. Jumladan, tizimlilik, motivatsion yondashuv, o'z-o'zini baholash, differensial ta'limgiz, kommunikativ muhit, individual ta'limgiz trayektoriyasi va moslashtirilgan o'quv materiallaridan foydalanish kabi shartlar bo'lajak o'qituvchilarni tyutor sifatida shakkantirishda muhim omillar sifatida ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: kompetensiyaviy yondashuv, tyutorlik faoliyati, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik shart-sharoitlar, ta'limgiz sifati, o'z-o'zini baholash, kontekstual ta'limgiz, o'quv motivatsiyasi, ta'limgizda individual yondashuv, pedagogik kompetensiya, zamonaviy o'qituvchi modeli.

Abstract: This article presents a thorough analysis of the scientific and theoretical foundations of the competency-based approach in preparing future teachers for professional activity, particularly for tutorial work within the framework of the modern educational system. The competency-based approach is viewed as a systematic model aimed at the integrated development of scientific knowledge, practical skills, socio-communicative experience, independent decision-making, and self-assessment abilities in the learner. This approach aligns with the global demands of 21st-century education. The article explores the nature of tutorial activity, its distinctive features, pedagogical functions, and place within the system of modern competencies. It also substantiates a set of pedagogical conditions necessary for equipping future teachers to perform effectively in tutorial roles. These include systematization, motivational support, self-assessment, differentiated instruction, communicative educational environments, individualized learning trajectories, and the use of adapted instructional materials.

Key words: competency-based approach, tutorial activity, future teacher, pedagogical conditions, quality of education, self-assessment, contextual learning, learning motivation, individualized instruction, pedagogical competence, model of the modern teacher.

Аннотация: В статье проводится глубокий анализ научно-теоретических основ компетентностного подхода к подготовке будущих учителей к профессиональной деятельности, в частности к тьюторской деятельности, в условиях современной образовательной системы. Компетентностный подход рассматривается как системная модель, направленная на формирование у личности совокупности научных знаний, практических умений, социально-коммуникативного опыта, способности к самостоятельному принятию решений и самооценке. Такой подход соответствует глобальным требованиям образования XXI века. В статье раскрывается сущность тьюторской деятельности, её специфика, педагогические функции и место в системе современных компетенций. Также обосновываются педагогические условия, необходимые для подготовки будущих учителей к данной деятельности. Среди таких условий выделяются системность, мотивационный подход, самооценка, дифференцированное обучение, коммуникативная образовательная среда, индивидуальная образовательная траектория и использование адаптированных учебных материалов.

Ключевые слова: компетентностный подход, тьюторская деятельность, будущий учитель, педагогические условия, качество образования, самооценка, контекстное обучение, учебная мотивация, индивидуальный подход в обучении, педагогическая компетенция, модель современного учителя.



KIRISH

Zamonaviy ta'limga tizimida global mashhur va raqamli sharoitida o'qituvchining faqat bilim beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi, talabaning o'sishini qo'llab-quvvatlovchi tahlilchi sifatidagi roli tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu holat pedagogik faoliyatda tyutorlik kabi yangi funksional yo'naliishlarning shakllanishi va rivojlanishini taqozo qilmoqda. Ayniqsa, ta'limga oluvchining o'z-o'zini rivojlanira olishi, mustaqil ta'limga olish, shaxsiy o'quv trayektoriyasini tanlay bilishi hamda o'z faoliyatini baholash va zarurat tug'ilganda uni o'zgartira olishi – zamonaviy o'qituvchining tyutorlik kompetensiyasini shakllantirishni muhim vazifa sifatida belgilamoqda.

Mazkur sharoitda kompetensiyaviy yondashuv ta'limga tashkil etishning zamonaviy paradigmasi sifatida ilgari surilmoqda. Bu yondashuv talabaning nafaqat bilim egallashini, balki amaliy faoliyatga tayyorlanishini, mustaqil fikrlash, muammoni hal etish, o'z-o'zini baholash va rivojlanish ko'nikmalariga ega bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Xususan, bo'lajak o'qituvchilarining tyutorlik faoliyatiga tayyorlanishida mazkur yondashuv pedagogik tayyorgarlik jarayonining tarkibiy va mazmuniy jihatlarini tubdan yangilashni taqozo etadi.

Mazkur muammo doirasida olib borilgan ilmiy izlanishlar (A.A. Verbitskiy, I.A. Zimnyaya, G.B. Skok va boshqalar) shuni ko'rsatadiki, talaba faoliyatining kontekstual tashkil etilishi, o'zini anglash, motivatsiya, kommunikatsiya va refleksiya kabi metakompetensiyalarni rivojlanish orqali ta'limga sifatini sezilarli darajada oshirish mumkin. Tyutorlik faoliyati aynan shu jarayonlarga bevosita xizmat qiluvchi va ularni boshqaruvchi pedagogik mexanizm sifatida talqin qilinmoqda. Shu bois, bo'lajak o'qituvchilarini tyutorlik faoliyatiga tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning nazariy-metodik asoslarini, tyutorlik faoliyatining mazmuni hamda zamonaviy ta'limga talablari nuqtai nazaridan shakllantirilishi lozim bo'lgan pedagogik shart-sharoitlar tizimi ilmiy asosda yoritilishi zarur.

Shu orqali ta'limga jarayonining samaradorligini oshirish hamda tyutor shaxsini zamon talablariiga mos holda shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHAHRI

Oliy ta'limga kompetensiyaviy yondashuv jamiyatning maxsus kasbiy ta'limga muassasasi yoki oliy kasbiy ta'limga muassasasi bitiruvchisini professional faoliyatga sifatlari tayyorlash bo'yicha zamonaviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Bilimga asoslangan paradigmadan farqli o'laroq, kompetensiyaviy yondashuv markazida mutaxassisning ishlab chiqarish sharoitida kasbiy faoliyat vazifalarini samarali bajarish uchun egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish qobiliyati turadi. Ushbu yondashuv, ayniqsa, muayyan kasbiy faoliyat sohasida zarur bo'lgan kompetensiyalar ustuvorligini belgilovchi professional talablarni tahlil qilishga, shuningdek, mutaxassis shaxsini kompetensiya egasi sifatida ko'rib chiqishga yo'naltirilgan. Bu doirada shaxsga oid bilim, ko'nikma, malaka, munosabat va qadriyatlar tizimi integratsiyalashgan holda, amaliy faoliyatga yo'naltirilgan tarzda rivojlaniriladi.

I.A. Zimnyaya, A.V. Xutorskoy, E.F. Zeer kabi olimlar ta'kidlaganidek, kompetensiyalar – bu faqat bilim emas, balki harakat, refleksiya, mustaqil qaror qabul qilish va o'zini baholash kabi murakkab faoliyat shakllarini ham o'z ichiga oladi [12; 13]. Hozirgi bosqichda oliy ta'limga tizimida yuz berayotgan tarkibiy, texnologik va maqsadga yo'naltirilgan o'zgarishlar o'qituvchining kasbiy tayyorgarligiga yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Jumladan, bo'lajak o'qituvchini tyutorlik faoliyatiga tayyorlash jarayoni chuqur nazariy-metodologik asoslashni hamda ta'limga jarayonini insonparvarlik va shaxsga yo'naltirilganlik tamoyillari asosida qayta tashkil etishni taqozo etadi.

Shunday qilib, kompetensiya – bu ma'lum bir sohada (ilmiy, ijtimoiy, umumiyyat madaniy va boshqalar) egal-lanadigan bilim, ko'nikma va tajriba majmuasidir, kompetentlik esa – mavjud kompetensiyalar asosida kasbiy vazifalarini bajarish qobiliyati yoki tayyorgarlik darajasidir [5].

I.A. Zimnyayaning ta'kidlashicha, kompetensiyalar – bu ichki, psixologik jihatdan shakllangan shaxsiy xususiyatlar bo'lib, ular insonning bilim, qadriyat va harakatga tayyorligini belgilaydi. Ular insonda mavjud bilimlarni real faoliyatda mustaqil qo'llay olish darajasini bildiradi. Bu esa kompetensiyanı – egallangan salohiyat, kompetentlik esa – real faoliyatdagi ifoda deb talqin qilish imkonini beradi [12].

Kompetensiyaviy yondashuv – bu nafaqat bilimlar majmuasi, balki shaxsning bilim, ko'nikma, malaka, qadriyatlar, motivatsiya va tajribani o'zida uyg'unlashtirib, muayyan hayotiy yoki kasbiy vazifalarini mustaqil va samarali hal qilishga layoqatli bo'lishini nazarda tutuvchi yondashuvdir. Ushbu yondashuv ta'limga jarayonida bilishdan – qila olishga, ya'ni faoliyk, tashabbuskorlik va mas'uliyatga asoslangan shaxsiy rivojlanishga o'tishni ta'minlaydi.

Kompetensiyaviy yondashuv mohiyatini faqat ta'lif natijalarini baholash vositasi sifatida emas, balki o'quv jarayonini tashkil etishning asosiy falsafasi sifatida ko'rish muhimdir. Bu yondashuv o'z tarkibida quyidagi asosiy tamoyillarni mujassam etadi:

- **Faollik tamoyili** – o'quvchi subyekt sifatida ta'lif jarayonida faol ishtirok etadi, passiv bilim oluvchidan faol bilim egasiga aylanadi;
- **Refleksiv yondashuv** – o'quvchi o'zining bilim olish va faoliyat yuritish jarayonini tahlil qiladi hamda mustaqil baholaydi;
- **O'z-o'zini boshqarish** – o'quvchi o'z o'quv faoliyatini maqsadga yo'naltiradi, individual trayektoriyasini shakllantira oladi;

Shaxsga yo'naltirilganlik – har bir o'quvchining individual imkoniyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari va bilim darsasi inobatga olinadi.

Zamonaviy o'qituvchi esa faqat bilim beruvchi emas, balki maslahatchi, tashkilotchi, muvofiqlashtiruvchi va ko'makchi sifatida faoliyat yuritadi. Aynan mana shu rol tyutorlik faoliyatining nazariy va amaliy negizini tashkil etadi. Bo'lajak o'qituvchini tyutorlik faoliyatiga tayyorlash jarayonida quyidagi asosiy kompetensiyalarni shakllantirish muhim hisoblanadi:

- **Metodologik kompetensiya** – ta'lifni loyihalashtirish, integrativ o'qitish metodlarini tanlash va ularni moslashtirish qobiliyati;
- **Kognitiv-kommunikativ kompetensiya** – axborot almashinuvi, muhokama, tahlil va fikr almashinuvi asosida o'quv faoliyatini tashkil etish qobiliyati;
- **Refleksiv va diagnostik kompetensiya** – o'z va boshqalarning faoliyatini baholay olish, metakognitiv yondashuvlarni shakllantirish salohiyati;
- **Motivatsion kompetensiya** – o'quvchilarda ichki motivatsiyani uyg'otish va ularni o'z ta'lif yo'llini anglashga yo'naltirish qobiliyati;
- **Axborot texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasi** – zamonaviy raqamlı vositalar yordamida mustaqil ta'lif olishni tashkil etish ko'nikmasi.

Shunday qilib, kompetensiyaviy yondashuvni tyutorlik faoliyati bilan integratsiyalash nafaqat pedagogik tayyorlov sifatini oshiradi, balki o'qituvchining kasbiy roli, faoliyat mazmuni va shakllarini qayta ko'rib chiqish uchun zarur zamin yaratadi. Bu yondashuv bevosita ta'lif sifatini oshirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lif tamoyillarini hayotga tatbiq etish hamda mustaqil va mas'uliyatli ta'lif subyektlarini tayyorlashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

A.A. Verbitskiy tomonidan ishlab chiqilgan kontekstual ta'lif nazariyasida kompetensiyaviy yondashuv real hayotiy vaziyatlar asosida ta'lifni tashkil etish zarurati bilan izohlanadi. Bu esa tyutorning talaba bilan hamkorlikda maqsad qo'yishi, uni anglash, muammoli vazifalarni hal etish, o'zini baholash va natijalarni tahlil qilish kabi bosqichlarda faol metodik yordam ko'rsatishini taqozo etadi [11].

Pedagogik adabiyotlarda tyutorlik faoliyatining mohiyati o'qituvchining faqat bilim beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi, hamkor va tashkilotchi sifatida yangicha pedagogik rolga ega bo'lishi bilan izohlanadi. Ushbu faoliyat turi o'z mohiyatiga ko'ra individual yondashuv, shaxsiy trayektoriya, o'z-o'zini tahlil qilish va baholash, refleksiya kabi kompetensiyalarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, tyutorlik faoliyati o'qituvchining professional kompetensiyalarini qayta ko'rib chiqishni, ularni zamon talablari asosida yangilash va amaliyotda samarali namoyon etishni talab etadi. Ayniqsa, zamonaviy ta'limda raqamlı texnologiyalardan foydalanish, masofaviy o'qitish, tarmoqli aloqa vositalari orqali axborot bilan ishslash malakalarini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash jarayonini yangi bosqichga olib chiqish – bugungi kunda oliy ta'lif muassasalarining ustuvor vazifalaridan birdir.

Ularni tayyorlashda esa zamonaviy ta'lif texnologiyalari, psixologik-pedagogik yondashuvlar va boshqaruv strategiyalarining integratsiyasiga asoslangan samarali pedagogik shart-sharoitlar tizimini shakllantirish zarur bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchilarda kompetensiyalarni rivojlantirish uchun esa aniq va tizimli pedagogik shart-sharoitlar majmuasi lozim. Tadqiqot natijalariga tayanib, quyidagi shartlar samaradorlikni oshiruvchi asosiy omillar sifatida belgilandi:

- **Diagnostik muhit** – talabaning bilim darajasini aniqlash va individual trayektoriya asosida o'qitishni tashkil etish;



- **Didaktik moslashtirilgan materiallar** – faqat bilim uzatishga emas, balki mustaqil fikrlash va amaliy faoliyatga yo'naltirilgan o'quv resurslari;
- **Psixologik muhit** – erkin muloqot, o'z fikrini bermalol ifoda etish, savol berish imkoniyati, ishonch va qulaylik muhitini shakllantirish;
- **Kontekstual o'quv faoliyati** – real hayotiy muammolar asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish;
- **O'z-o'zini baholash va monitoring tizimi** – talaba o'z yutuq va kamchiliklarini real baholay oladigan mexanizmlarni joriy etish;
- **Tizimlilik prinsipi** – o'quv jarayonining barcha bosqichlarida metodik yordam, oldindan rejalashtirilgan ko'mak, monitoring va tahlil faoliyatining uzviyigini ta'minlash;
- **Individuallashtirilgan o'quv trayektoriyalar** – turli tayyorgarlik darajasidagi talabalar uchun propedevtik materiallar tayyorlash;
- **Tytutor va talaba o'rtaсидаги ishonchli hamkorlik** – pedagogik jarayonda o'zaro hurmat va psixologik qo'llab-quvvatlash muhitini shakllantirish.

Tytutorlik texnologiyalarini amalga oshiruvchi konsepsiyalarga eng yaqin va dolzarb yondashuvlardan biri bu – A.A. Verbitskiy tomonidan ishlab chiqilgan kontekstual ta'lif nazariyasidir [11].

Mazkur nazariyaga ko'ra: "Ta'lif mazmunini o'zlashtirish talabaning ichki, anglangan va motivatsiyalangan faoliyati orqali, ya'ni atrof-muhitdagi obyektlar va hodisalarga qaratilgan tarzda amalga oshadi. Bu jarayon tayyor axborotni oddiy uzatish asosida emas, balki talabada ongli bilish faolligini uyg'otish orqali yuzaga chiqadi." Ushbu yondashuv kasbiy ta'lifdagi bir qator amaliy ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, ularning eng muhimlari quydagilardan iborat:

- Talaba faqat "javob beruvchi" pozitsiyada faoliyat yuritadi, ya'ni o'qituvchining boshqaruv ta'siriga javoban savollarga javob beradi yoki topshiriqlarni bajaradi. Biroq real ish faoliyatida undan mustaqil tashabbus ko'rsatish va faol ishtirop talab etiladi;
- Ta'lif jarayonida talabaning diqqat, xotira, sezgi, motorika kabi psixik funksiyalari alohida-alohida ishga solinadi, holbuki amaliy mehnatda inson butun shaxs sifatida kompleks yondashuvda ishtirop etadi;
- Talaba o'zgarmas, statik va tayyor o'quv axborotini oladi, biroq kasbiy faoliyatda bu axborot vaqt va makonga mos ravishda harakatlanadigan, texnologik jarayonga mos ravishda o'zgaruvchi shaklda qo'llaniladi.

Ushbu qarashlar tyutor texnologiyalarining mohiyatiga yaqin bo'lib, o'qituvchini konsultant, hamkor va yo'il ko'rsatuvchi sifatida qayta talqin etishga zamin yaratadi.

Quyida keltirilgan yordam ko'rsatish bosqichlari xorijiy tyutor mutaxassislari tajribalari hamda muallifning an'anaviy va masofaviy o'qitish tajribasi asosida ishlab chiqilgan [13].

1. O'qish boshlanishidan oldingi bosqich:

Ushbu bosqichda talabalarni quydagi jihatlar bilan tanishtirish muhim: ta'lifning maqsadi, tashkil etilish tartibi, foydalaniladigan materiallar va ularga kirish yo'llari, yakuniy tayyorgarlikka qo'yiladigan talablar va h.k. Shuningdek, talabalarning boshlang'ich tayyorgarlik darajasini aniqlash, ehtiyojlari va motivatsiyasini baholash, propedevtik (tayyorlovchi) materiallar rejasini ishlab chiqish zarur. O'quv-uslubiy materiallar sifatini oldindan baholab chiqish ularning hajmi va shakli bo'yicha qanday yordam zarur bo'lishini aniqlashga xizmat qiladi.

2. Ta'lif jarayoni davomida:

Ushbu bosqichda yordam quydagi shakllarda ko'rsatiladi: doimiy maslahatlar (shu jumladan, zamonaviy axborot texnologiyalari orqali), savollarga javob berish, o'quv materiallarini izlash va taqdim etish usullaridan foydalanish. Shu bilan birga, talabalarni bilishga undovchi usullar va o'quv materiallari sifatiga baho berish asosida tanlangan qo'shimcha choralar ham muhim o'r'in tutadi.

3. Ta'lif yakuni bosqichi:

Bu bosqichda ta'lif maqsadlariga erishilganligini baholash, egallangan kompetensiyalarni amalda qo'llashga yo'naltirish va talabalar rivojlanishining istiqbollarini belgilash zarur. Kurs yakunida ta'lif jarayoni, o'quv materiallari va o'qituvchining faoliyati chuqr tahlil qilinib, sifat menejmenti tizimida "uzluksiz takomillashtirish" prinsipi asosida takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning ta'lif jarayonidagi faol ishtiropini qo'llab-quvvatlash tizimli tarzda amalga oshirishi lozim. Talabalarni ta'lif dasturining yakuniy bosqichida shakllanadigan kompetensiyalar asosida "qayerda



va qanday o'qish" masalasida mustaqil qaror qabul qilishga yo'naltirish, ularning individual o'quv yo'nalishi va shaklini tanlash huquqini kafolatlash – Bolonya jarayoni hamda ochiq ta'lim g'oyalarining amaliy ifodasidir. Bu tamoyillar masofaviy ta'limda ham muvaffaqiyatli ta'limning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kompetensiyaviy yondashuv sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan, faol va mustaqil o'quv faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zaruriyati dolzARB ahamiyat kasb etmoqda. O'rganilgan manbalar asosida aniqlanishicha, tyutorlik faoliyatining mazmuni va funksiyalari, uni tashkil etish mexanizmlari va unga tayyorlash usullari bevosita kompetensiyaviy yondashuv tamoyillari bilan uzbek bog'liqidir.

Kompetensiyaviy yondashuv – bu bilim, ko'nikma va munosabatlarning integratsiyalashgan tizimi sifatida talaba shaxsini faol subyekt darajasida shakllantirishga xizmat qiluvchi konseptual yondashuvdir. Ushbu yondashuv, o'z navbatida, pedagogik faoliyatda quyidagi ustuvor kompetensiyalarni rivojlantirishni nazarda tutadi: kommunikativ, reflektiv, tashabbuskorlik, muammoli vaziyatda mustaqil qaror qabul qilish, shuningdek, pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash kompetensiyalari.

Aynan mana shu kompetensiyalar tyutorlik faoliyatining asosiy poydevorini tashkil etadi. Nazariy manbalar tahlili asosida quyidagi xulosalar aniqlandi:

Birinchidan, tyutorlik faoliyati ta'lim jarayonida subyekt–subyekt munosabatlarini barpo etishga xizmat qiladi;

Ikkinchidan, u talabaning shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini qo'llab-quvvatlovchi muhim faoliyat turidir;

Uchinchidan, bunday faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni shakllantirish faqat mos pedagogik shart-sharoitlar mavjud bo'lgandagina mumkin.

Shunday pedagogik shart-sharoitlarga quyidagilar kiradi:

- tizimli va bosqichma-bosqich o'quv-metodik ta'minot;
- reflektiv va diagnostik yondashuv asosidagi o'z-o'zini baholash mexanizmlari;
- motivatsion va kommunikativ muhit;
- hamkorlik va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim trayektoriyalarini tanlash imkoniyati;
- moslashtirilgan o'quv materiallaridan foydalanish hamda tyutorlik faoliyatining mazmunini o'zlashtirishga yo'naltirilgan kontekstual ta'lim texnologiyalaridan foydalanish.

Umuman olganda, kompetensiyaviy yondashuv doirasida tashkil etilgan tyutorlik faoliyati bo'lajak o'qituvchilar uchun yangi professional kompetensiyalarning – maslahatchilik, diagnostik, psixopedagogik qo'llab-quvvatlash, shaxsga yo'naltirilgan ta'limni boshqarish kabi ko'nikmalarning shakllanishini talab etadi. Mazkur kompetensiyalarni samarali rivojlantirish esa faqat yuqorida tahlil qilingan pedagogik shart-sharoitlar asosida mumkin bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash zamonaviy ta'lim tizimining shaxsga yo'naltirilgan, moslashuvchan va innovatsion yo'nalishlarini aks ettiruvchi strategik masalalardan biridir. Mazkur maqolada olib borilgan ilmiy-nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, bu jarayonni samarali tashkil etish faqatgina kompetensiyaviy yondashuv asosida amalga oshirilgandagina kutilgan natjalarga erishish mumkin.

Kompetensiyaviy yondashuv mohiyatan o'qituvchi shaxsida bilim, ko'nikma va tajribaning integratsiyasiga asoslanadi; u o'z faoliyatini mustaqil tashkil etuvchi, tashabbuskor va refleksiv pedagogik subyektni shakllantirishga xizmat qiladi. Aynan ushbu yondashuv tyutorlik faoliyatining ichki mohiyatiga – talaba bilan hamkorlikda ishlash, uning shaxsiy o'sishini rag'battanlantirish, individual ehtiyojlarga mos pedagogik strategiyalarni tanlashga to'laqonli mos keladi.

Olib borilgan nazariy tahlillar asosida quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarga kelindi:

1. Tyutorlik faoliyatining samarali tashkil etilishi uchun bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida tizimlilik, uzluksizlik va diagnostik yondashuv asosida qurilgan pedagogik shart-sharoitlar majmui zarur. Bunday shart-sharoitlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: boshlang'ich tayyorgarlik darjasini aniqlash, propedevtik o'quv materiallarini ishlab chiqish, o'z-o'zini baholash mexanizmlarini shakllantirish, kommunikativ hamkorlik muhitini yaratish va motivatsion jarayonlarni faol qo'llab-quvvatlash.



2. Tyutorlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar – maslahatchilik, diagnostik, refleksiv, kommunikativ, pedagogik monitoring hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'limga loyihalash ko'nikmalar – kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilar tomonidan izchil shakllantiriladi.
3. Kontekstual ta'limga nazariyasi doirasida tyutorlik faoliyati nafaqat axborotni uzatishga, balki talabaning ichki motivatsiyasini uyg'otishga, uni faol o'quvchi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bu holat kompetensiyaviy yondashuvning amalii asosini tashkil etadi.
4. Zamonaviy ta'limga standartlari va sifat menejmenti talablariga ko'ra, o'qituvchining professional tayyorligida "iste'molchi" – ya'ni talaba ehtiyojlarini inobatga olish muhim mezon sifatida qaralmoqda. Tyutorlik faoliyati aynan shu tamoyilni ta'limga amaliyotiga tatbiq etish imkonini beradi.
5. Shu bois, bo'lajak o'qituvchilarini tyutorlik faoliyatiga tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvni asosiy nazariy-metodologik asos sifatida qabul qilish, uni puxta ishlab chiqilgan pedagogik shart-sharoitlar bilan ta'minlash – kelajakdagagi pedagog kadrlar salohiyatini oshirishning zaruriy omili hisoblanadi. Bu yondashuv shaxsga yo'naltirilgan ta'limga paradigmasing real mexanizmini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019-yil 8-oktyabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limga tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>
2. Qurbonov H.R. Kompetensiyaviy yondashuv asosida kadrlar tayyorlashning nazariy-metodik asoslari. – Toshkent: Fan, 2019. – 248 b.
3. Makkendri S., Fild R. Rivojlanayotgan ta'limga muhitida talabalarining o'zini o'zi boshqarish qobiliyatini shakllantirish // Journal of Learning Development in Higher Education. – 2020. – Vol. 18. – B. 1–14.
4. Pidkasisitiy P.I. Pedagogika va o'quv jarayonini boshqarish mantiqi. – M.: Pedagogika, 1998. – 320 s.
5. Raven J. Kompetensiya zamonaviy jamiyatda: aniqlash, rivojlantirish va amalga oshirish. – M.: Kogito-Tsentr, 2002. – 396 s.
6. Ryabova Ye.P. Tyutorlik uzlusiz ta'limga tizimidagi pedagogik faoliyat sifatida // Pedagogika. – 2020. – №7. – B. 34–38.
7. Skok G.B. Talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish usullari. – Novosibirsk: NGTU, 2007. – 96 s.
8. Slastyonin V.A., Isaev I.F., Shiyanov Ye.N. Pedagogika: pedagogika oliygochlari talabalari uchun darslik. – M.: Akademiya, 2008. – 512 s.
9. Shapovalenko I.V. Talabalar mustaqil ishini tyutorlik asosida qo'llab-quvvatlash // O'zbekistonda oliy ta'limga. – 2021. – №4. – B. 121–128.
10. UNESCO. Incheon Declaration and Framework for Action for the Implementation of Sustainable Development Goal 4. – Paris: UNESCO, 2016. – [Elektron manba]: <https://unesdoc.unesco.org/>
11. Verbitskiy A.A. Kontekstual ta'limga oliy ta'limga tizimida. – M.: Vysshaya shkola, 2006. – 142 s.
12. Zimnyaya I.A. Ta'limga kompetensiyaviy yondashuvning samarali maqsadli asosi sifatida asosiy kompetensiyalar. – M.: Mutaxassislar tayyorlash sifati muammolari bo'yicha tadqiqot markazi, 2004. – 41 s.
13. Raven D., Lane P. Zamonaviy ta'limga kontekstida tyutorlik kompetensiyalari: xalqaro qarashlar // International Journal of Educational Development. – 2019. – Vol. 68. – P. 75–83.

- 
- 13.00.00** Pedagogika fanlari
 - 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
 - 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03** Maxsus pedagogika
 - 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07** Ta'limda menejment
 - 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00** Tarix fanlari
 - 19.00.00** Psixologiya fanlari
 - 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00** Kimyo fanlari
 - 03.00.00** Biologiya fanlari
 - 09.00.00** Falsafa fanlari
 - 10.00.00** Filologiya fanlari
 - 11.00.00** Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.